

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

WAYS TO DEVELOP THE INVESTMENT ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS

¹Mamaraimova Rushana
Rashidovna

¹Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti assistenti.

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada tijorat banklarining investitsiya faoliyati, uning mazmun-mohiyati hamda iqtisodiy o'sishdagi o'rni tahlil qilinadi. Banklarning investitsion portfellarini shakllantirish tamoyillari, risklarni boshqarish mexanizmlari va investitsiya samaradorligini oshirish omillari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish, kapital bazasini mustahkamlash, korporativ boshqaruvni takomillashtirish kabi yo'nalishlar asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning amaliy yo'llari ishlab chiqilgan. Maqolada O'zbekiston bank tizimidagi islohotlar fonida tijorat banklarining investitsion salohiyatini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar ham taklif etiladi.

Eng. - This article analyzes the investment activities of commercial banks, their essence, and their role in economic growth. It highlights the principles of forming banks' investment portfolios, mechanisms for risk management, and factors for improving investment efficiency. Practical approaches to enhancing investment activity are developed based on the implementation of digital technologies, the use of innovative financial instruments, strengthening the capital base, and improving corporate governance. The article also provides recommendations for expanding the investment potential of commercial banks in the context of ongoing reforms in Uzbekistan's banking system.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, investitsiya faoliyati, investitsion portfel, risklarni boshqarish, moliyaviy instrumentlar, raqamli transformatsiya, kapital bozori, investitsiya siyosati, iqtisodiy o'sish, bank islohotlari.*

❖ *commercial banks, investment activity, investment portfolio, risk management, financial instruments, digital transformation, capital market, investment policy, economic growth, banking reforms.*

Kirish.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan moliya-bank tizimining samaradorligiga bog'liq bo'lib, tijorat banklarining investitsiya faoliyati ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismidir. Mavjud moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish, yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash, innovatsion ishlab chiqarishlarni

moliyalashtirish hamda tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini oshirishda tijorat banklari hal qiluvchi o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda bank tizimida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, ularga bozor tamoyillariga asoslangan faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro

standartlarga mos boshqaruv tizimini joriy etish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Ushbu islohotlar tijorat banklarining investitsion salohiyatini mustahkamlash, raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishda ularning rolini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, global moliya bozorlaridagi o'zgarishlar, yangi raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, investitsiyaviy risklarning ko'payib borishi banklarning investitsiya faoliyatini takomillashtirishni talab etmoqda. Banklar oldiga investitsion portfelni diversifikatsiya qilish, zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish, risklarni samarali boshqarish hamda investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish kabi dolzarb vazifalar qo'yilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklari investitsiya faoliyatining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, uzoq muddatda korxonalarning raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishga imkon beradi. Banklarning investitsiya faoliyati komissiyalardan olinadigan daromadlarni va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirish orqali ularning moliyaviy ahvolini yanada barqaror va diversifikatsiyalangan iqtisodiyotni yaratishga ko'maklashadi. Tijorat banklarining investitsiya faoliyati, uning mazmun-mohiyati hamda iqtisodiy o'sishdagi o'rni yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, xorijiy iqtisodchilar Yu. Morozkin va Ye. Svistunovalarning ta'kidlashicha, fond bozori konyunkturasining dinamik o'zgarib borishi sharoitida optimal qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish doimo ham banklar uchun yetarli bo'lmaydi. Bozorning tebranishlarga boy muhitida tijorat banklari o'z investitsion portfellarini boshqarishda takomillashgan strategiyalarni qo'llashi zarur bo'ladi [1]. Bunday strategiya fond bozoridagi tendensiyalarni doimiy monitoring qilish, mavjud omillar asosida

portfel tarkibiga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish hamda investitsion qarorlarning aniqligi va zamonaviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari investor sifatida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq keng ko'lamli operatsiyalarni amalga oshiradi. Ular qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, ularni garov sifatida qabul qilib kreditlar joylashtirish, dividendlar va foiz to'lovlarini qabul qilish, emitent xo'jalik subyektlarining boshqaruvida ishtirok etish, bankrotlik jarayonlarida kreditor sifatida qatnashish, shuningdek moliyaviy aktivlar va aksiyalarga investitsiyalarni amalga oshiradi. Bularning barchasi banklarning investitsion faoliyatini bozor mexanizmi, infratuzilma va institutsional omillar bilan chambarchas bog'laydi [2].

E.V. Yakutina investitsiya munosabatlarida banklarning o'rni alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, banklar turli vositalar orqali aholining katta hajmdagi bo'sh mablag'larini jalb qilib, ularni iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining qayta tiklanishi va iqtisodiy o'sishga xizmat qilishini alohida qayd etadi. Demak, banklar milliy iqtisodiyotda investitsion resurslar harakatining asosiy uzatuvchi bo'g'ini vazifasini bajaradi [3].

A.V. Zverev, V.V. Mandron va M.Yu. Mishinalar esa moliyaviy institutlarning investitsiya siyosatini ishlab chiqishda asosiy maqsadlarni belgilash va ularga erishishning eng maqbul usullarini tanlash muhimligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, investitsiya faoliyatini boshqarish – xavf va rentabellik o'rtasida optimal nisbatni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, bunda strategik va taktik boshqaruv elementlari muhim bo'g'in hisoblanadi [4].

B.A. Rayzberg tijorat banklari investitsiyalarini uzoq muddatli samaradorlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va ularga yo'naltirilgan resurslardan olinadigan qo'shimcha foyda bilan bog'liq iqtisodiy jarayon sifatida talqin etadi. Bu yondashuv banklarning investitsiya portfelini

shakllantirishda barqarorlik va uzoq muddatli daromadlilik mezonlarini ustuvor qo'yishini anglatadi [5].

L.L. Igonina banklarning investitsiya faoliyatini iqtisodiy subyekt sifatidagi roli nuqtayi nazaridan baholagan holda, banklar moliyaviy aktivlarni yaratish va sotib olish orqali bozorning ma'lum segmentlariga o'z resurslarini vaqtincha joylashtiruvchi investor sifatida faoliyat yuritishini alohida qayd etadi. Bu jarayonda banklar kapital va jamg'armalarni jalb qilish orqali kelgusida ulardan yuqori samarali foydalanish imkoniyatlarini shakllantiradi [6].

Mahalliy iqtisodchi olim O'A. Haydarov esa tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy hisobotlariga yetarli darajada e'tibor berilmasligi, ularning soliq organlariga topshiriladigan rasmiy hisobotlarda haqiqiy moliyaviy holat aks etmasligi banklarning investitsiyaviy qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu holat banklarning investor sifatidagi ishonchini pasaytirib, ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun investitsiyalash imkoniyatlarining cheklanishiga olib keladi [7].

K.R.Makkonnell va S.L.Bryu fond bozoriga shunday ta'rif beradilar. "Fond bozori - kapital mablag'larini tavsiya etuvchi va sotib oluvchilarni bir joyga jamlovchi institutdir" [8]. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismi sifatida fond bozori bir qator iqtisodchilarning ilmiy ishlarida bo'sh pul mablag'larining harakatini ta'minlovchi mexanizm sifatida qaraladi. U qarz oluvchiga kapital mablag'larni sotib olish uchun mablag'larni jalb qilish imkonini beradi.

M.B.Xamidulin ilmiy tadqiqotlarida "O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish orqali investitsiyalarni jalb etish uchun barcha sharoitlar yetarli deb ta'kidlaydi..." [9]. Fond bozorida tashkilotlarning passiv ravishda ishtirok etishini bir nechta omillar bilan baholaydi: birinchidan, birlamchi bozorda strategik

ahamiyatga ega tashkilotlarning jalb etilmasligi, ikkinchidan, aksiyadorlik tashkilotlari aksiyalari ulishida davlatning ulushi yuqoriligi, uchinchidan ikkilamchi bozorda aksiyalarning likvidli emasligi. Yuqoridagi omillarning to'liq yechimi topilmas ekan fond bozori orqali investitsiyalarni jalb etish pastligicha qolaveradi.

U.M.Aliev "respublikada investitsiya muhiti yuqori bo'lishi korporativ obligatsiyalarning birlamchi va ikkilamchi bozoridagi ulushi ortib boraveradi deydi..." [10].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsion faoliyati ko'p qirrali va bankning o'z strategiyasiga bevosita bog'liqdir. Banklar aksiyalar, obligatsiyalar, derivativlar va boshqa moliyaviy instrumentlarga sarmoya kiritish orqali nafaqat daromad olish, balki investitsion risklarni kamaytirish, portfelni diversifikatsiya qilish va bozor konyunkturasiga moslashuvchan boshqaruvni amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, banklar investitsiya jarayonida mijozlar portfelini boshqarish, konsalting xizmatlari ko'rsatish hamda fond bozoridagi moliyaviy operatsiyalarda ishtirok etish orqali iqtisodiyotning investitsiya muhitini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy mamlakatlarda milliy iqtisodiyotimizda tijorat banklari investitsion faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy sharoitda investorlar o'zlariga uchta asosiy vazifani qo'yadilar: kapitalni

inflyatsiyadan saqlab qolish, uni ko'paytirish va vakolatli investitsiyalar yordamida ma'lum daromadga erishish. Fond bozoriga investitsiyalarni hisobga olgan holda, investitsiya daromadlarini passiv deb atash qiyin. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishdan oldin kompaniya yoki uning aktivlarining qanday holatda ekanligini tahlil qilishi bank

daromadining oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Fond bozori - bu qimmatli qog'ozlar savdosi amalga oshiriladigan joy hisoblanib, unda tijorat banklari ma'lum bir moliyaviy aktivlarni tanlash natijasida sotib olingandan so'ng, bank portfelida aksiyalar, obligatsiyalar, valyuta va boshqa vositalar paydo bo'ladi.



1-rasm. Tijorat banklari investitsiya faoliyatining asosiy jihatlar¹

Tijorat banklarini moliyaviy xatarlardan himoya qilish, investitsiyalarini saqlab qolish yoki o'sishiga bo'lgan ehtiyojlarini moliyaviy aktivlar ro'yxatini kengaytirish orqali qanoatlantirish mumkin, bunga fond bozorining mavjudligini oshirish orqali erishish mumkin.


Tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyati xilma-xil bo'lib, emitent, investor, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi rolini o'z ichiga oladi. Qimmatli qog'ozlarni ishonchli boshqarish va brokerlik faoliyatini amalga oshirish bo'yicha faoliyat katta ahamiyatga ega, chunki bu holda investorlar uchun fond bozorining mavjudligini ta'minlaydigan tijorat bankining vositachilik roli amalga oshiriladi. Tijorat banklarining iqtisodiy siyosatiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarning ko'rligiga qaramay, bank

tomonidan mijozlarga taqdim etiladigan investitsiya shartlari bog'liq bo'lgan boshqaruv siyosati muhim rol o'ynaydi. Tijorat bankining aktiv-passiv va aktiv operatsiyalarini birlashtirish mexanizmi chakana investorlarning fond bozorining moliyaviy mahsulotlarini sotib olish manfaatlarini va emitentlarning (qarz oluvchilarning) investitsiya resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradigan maqbul moliyaviy mahsulotni loyihalashni o'z ichiga oladi. Ushbu mexanizm tijorat banklarining fond bozoridagi rolini anderrayer sifatida kuchaytiradi. Moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni loyihalashda tijorat banklari uchun mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda banklarning investitsiya portfelini shakllantirish hamda uning

¹Muallif ishlanmasi.

rentabelligini aniqlash amalga oshiriladigan eng mashhur hamda tez-tez ishlatiladigan modellar quyidagilar orqali aniqlanadi (2-rasm).



2-rasm. Banklarning investitsiya portfelini shakllantirish hamda uning rentabelligini aniqlash modellari²

Markovits modelida bitta portfelning qimmatli qog'ozlarining rentabellik ko'rsatkichlari bir-biri bilan bog'liq. Ba'zi qog'ozlarning o'sishi boshqa qog'ozlarning bir vaqtning o'zida o'sishi bilan birga keladi. Shu bilan birga, uchinchi turdagi qog'ozlarda rentabellik o'zgarmaydi hamda to'rtinchi tur uni yo'qotadi. Ushbu bog'liqlik korrelyatsiya deb ataladi. Sharp modeli indeks modelidir. Sharp birinchi modelning murakkabliklaridan qochishga harakat qildi. U kerakli yechimni eng kam harakat bilan hisoblash uchun hisob-kitoblarni soddalashtirishga qaror qildi. U bu omilini kiritdi hamda individual aksiyalar kurslarining o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikdan foydalandi. Muvozanat narxlari modelida asosiy ma'lumotlar odatda tan olingan xavf

ko'rsatkichlari, masalan, inflyatsiya, iqtisodiy rivojlanish darajasi orqali qo'llaniladi. Ushbu modelda taxmin qilingan daromad ko'plab omillarga bog'liq. Oldingi modellar umuman bozor daromadlarini hisoblab chiqdilar, bu yerda har bir omilning ulushi ham hisoblanadi. Daromad darajasi individual aksiyalarning iqtisodiy o'zgarishlarga bog'liqligiga qarab tuzatiladi. Kapital aktivlarini narxlash modeli. Ushbu model xavfli investitsiyalarni tanlashda investorlar xavf-xatarsiz rentabellik stavkasidan ko'ra ko'proq daromad olishni kutishlariga asoslanadi. Model daromadlilik darajasi xavf-xatarsiz investitsiyalar bo'yicha foyda darajasi hamda tavakkalchilik aktiviga ega bo'lish bilan bog'liq tavakkalchilik mukofotidan iborat bo'lishini nazarda tutadi.

1-jadval

Investitsiya faolligining oshishiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar tahlili*

Ko'rsatkichlar	Yillar					2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi (+, -)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Yalpi ichki mahsulot	114,4	111,9	110,6	111,8	108	-6,4
Inflyatsiya darajasi	13	14,3	11,6	9,8	12,2	-0,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	138,1	95,6	102,9	100,2	123,4	-14,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hamda qurilish ishlari bo'yicha narxlar indeksi yillik dinamikasi	119	109,1	112,4	110,3	108,1	-10,9
Asosiy kapitalga investitsiyalarda bank kreditlari hamda boshqa qarz mablag'lari ulushi	13,8	7,6	8	6,6	3,8	-10
Ko'rsatilgan aloqa hamda axborotlashtirish xizmatlarining hajmi, mlrd. so'mda	10891,7	13852,3	17755,1	24508,1	35261,9	24370,2

*<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

²Muallif ishlanmasi.

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda 2019-2023-yillar davomida iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi keltirilgan bo'lib, ular tijorat banklarining investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lgan va bu holat banklarning investitsion strategiyasini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

1. Yalpi ichki mahsulotning pasayish sur'ati (6,4-foiz) iqtisodiy faollikning sekinlashganini ko'rsatadi. Bu holat tijorat banklarining investitsion loyihalarga bo'lgan talabini kamaytirishi, kredit risklarining oshishi va banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi investitsiya portfeli sifatini oshirish uchun portfelni diversifikatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

2. Inflyatsiya darajasining nisbatan yuqori bo'lishi (12,2-foiz) banklar uchun investitsiya qarorlarida noaniqlikni oshiradi. Inflyatsiya tebranishlari bank resurslarining real qiymatini pasaytiradi va uzoq muddatli investitsiyalar bo'yicha risklarni kuchaytiradi. Shu bois tijorat banklari investitsiya siyosatini shakllantirishda inflyatsion kutilmalarni hisobga olgan holda to'g'ri aktivlarni tanlashi zarur.

3. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 14,7 punktga kamayishi real sektorning investitsion talabining qisqarayotganini anglatadi. Bu, o'z navbatida, tijorat banklarining loyiha moliyalashtirishdagi ulushini oshirish, investitsion loyihalar sifatini tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish va risklarni baholash tizimini yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

4. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha narxlar indeksining (-10,9) punktga pasayishi investitsiya muhitidagi narxlar barqarorligiga

ijobiy ta'sir qilgan bo'lsa-da, investitsiya loyihalari tannarxiga ta'sir ko'rsatadigan bozor omillarining mavjudligini anglatadi. Bu holat banklarning investitsion loyihalarni moliyalashtirishda narx risklarini chuqur tahlil qilishini talab etadi.

5. Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'larining investitsiyalardagi ulushining 13,8 foizdan 3,8 foizgacha pasayishi (-10 punkt) tijorat banklarining investitsion faoliyatidagi yetakchi rolining kamayganini ko'rsatadi. Ushbu holat bank kreditlash shartlarining qat'iylashuvi, risklar oshgan sharoitda banklarning ehtiyotkorlik siyosati kuchaygani yoki kredit resurslari narxining yuqoriligi bilan izohlanishi mumkin. Shunga ko'ra, banklar tomonidan investitsion kreditlash tizimini qayta ko'rib chiqish, resurs bazasini kengaytirish hamda foiz siyosatini liberallashtirish zarur bo'ladi.

6. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining keskin oshishi iqtisodiyotning raqamli sektorida jadal o'sish kuzatilganini bildiradi. Bu tendensiya tijorat banklari uchun yangi investitsiya yo'nalishlarini ochadi. Raqamli xizmatlarga talabning ortishi banklarning IT-infratuzilmasini modernizatsiya qilish, fintech loyihalariga sarmoya kiritish, elektron bank xizmatlarini kengaytirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish zarurligini ham ko'rsatadi.

Umuman olganda 1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar 2019-2023-yillarda investitsiya faolligining pasayishiga sabab bo'lgan bir qator makroiqtisodiy omillar mavjudligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- ❖ investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish;
- ❖ risklarni baholashning zamonaviy modellari va reyting tizimlarini joriy etish;

❖ real sektor investitsiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun kredit shartlarini optimallashtirish;

❖ raqamli texnologiyalar va innovatsion xizmatlar bozoriga faol kirish;

❖ resurs bazasini mustahkamlash va uzoq muddatli kapitalni jalb qilish.

Shunday qilib, tahlil natijalari tijorat banklarining investitsiya faoliyatini chuqur isloh qilinishi zarurligini hamda investitsion strategiyalarni zamon talablari asosida yangilash lozimligini ko'rsatadi.

Tijorat banklari investitsiya portfelni shakllantirish, tahlil hamda monitoring qilish hamda oqilonalashtirish asosida tarkibini qayta ko'rib chiqish jarayonida uning talab qilingan parametrlariga mos keladigan yangi investitsion sifati hossasiga erishiladi. Ushbu jarayonni umuman olganda portfelni boshqarish deb tushunish mumkin. Investitsiyalar portfeli shunday instrumentki, uning samarali boshqarilishi asosida investorni talabi doirasida qoniqarli daromadning barqaror miqdori minimal risklar darajasida ta'minlanishi mumkin.

2-jadval

Mamlakatimiz tijorat banklarining investitsiya portfeli tahlili*, foizda

№	Ko'rsatkichlar	Yillar 1-yanvar holatiga					2024 yilda 2020 yilga nisbatan o'zgarishi, (+,-)
		2020	2021	2022	2023	2024	
1.	Investitsiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlar	1,2	2,6	4,4	5,7	5,0	3,8
2.	Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	1,3	3,1	2,8	2,3	2,4	1,1

*Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida)

Mamlakatimiz tijorat banklarining investitsiya portfeli tahlilidan ko'rinadiki, 2024-yil 1-yanvarda 2020-yil 1-yanvarga nisbatan investitsiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlarning hajmi 3,8 foizga, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi esa 1,1 foizga o'zgargan. Shuningdek, investitsiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlar tijorat banklarining investitsiya portfelida juda ham kam ulushga ega. Lekin shunga qaramasdan kichik hajmda bo'lsa ham o'sish tendensiyasini nomoyon etgan. Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar ham past ulushga ega bo'lib 2020-yil 1-yanvar holatiga banklarining investitsiya portfelida 1,3 foizni tashkil etgan bo'lishi bilan bir vaqtda kamgina o'sishni ko'rsatgan yani 2024-yil 1-yanvar holatiga 1,1 foiz ortib, 2,4 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagi holatlar shundan dalolat beradiki, banklarining investitsiya portfelida qimmatli qog'ozlar ulushini muntazam oshirib boorish yuzasidan bank tizimi oldida hal etilishi

lozim bo'lgan vazifalar mavjudligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot davomida tijorat banklarining investitsiya faoliyati, uning mazmun-mohiyati hamda iqtisodiyotdagi o'rni har tomonlama tahlil qilindi. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari zamonaviy iqtisodiyotni moliyalashtirishning eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, ularning investitsion faolligi iqtisodiy o'sish sur'atlari, fond bozori holati, inflyatsiya darajasi va investitsiya muhitining barqarorligiga bevosita bog'liqdir.

Statistik tahlillar esa 2019-2023-yillarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda sezilarli tebranishlar bo'lganini ko'rsatdi. YIM o'sish sur'atlarining pasayishi, inflyatsiya tebranishlari, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining qisqarishi va investitsiyalarda bank

kreditlarining ulushi keskin kamaygani banklarning investitsiya faoliyatiga sezilarli bosim o'tkazgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish quyidagi strategik yo'nalishlarda jadallashtirilishi zarur:

Investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, risklarni kamaytirish va bozor volatilligiga moslashuvchan javob qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish.

Innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish – derivativlar, istiqbolli aksiyalar, obligatsiyalar va fintech asosidagi yangi investitsiya vositalarini keng joriy etish. Raqamli transformatsiyani jadallashtirish, IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish va bank xizmatlarining raqamli segmentini kengaytirish.

Sifatli investitsion loyihalar tanlovini kuchaytirish, moliyaviy hisobotlar tahlilini

takomillashtirish, shaffof axborot tizimlarini joriy etish. Resurs bazasini mustahkamlash, uzoq muddatli investitsiya manbalarini kengaytirish va arzon kredit resurslari ulushini oshirish. Real sektor bilan banklar o'rtasidagi investitsion integratsiyani kuchaytirish, ishlab chiqarish, transport, energetika, IT kabi sohalarda istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish.

Umuman olganda, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy islohotlarning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u bank tizimining barqarorligini oshirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish va mamlakatning investitsion salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Strategik boshqaruv, raqamli innovatsiyalar va diversifikatsiyalangan portfel siyosatini uyg'unlashtirish orqali tijorat banklari iqtisodiy o'sishning faol drayveriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Морозкин Ю.Н, Свистунова Е.С. Управление портфелем ценных бумаг в коммерческом банке//Вестник Челябинского государственного университета. – Челябинск, 2011. – №6. – С. 138.
2. Боровкова В. А., Боровкова В. А. Рынок ценных бумаг: Учебное пособие. 2-е изд., обновленное и дополненное. – “Издательский дом Питер”, 2021.
3. Якутина Э.В. Инвестиции в банковской деятельности // Economics. – 2017. – № 5 (26). – С. 59-62.
4. Зверев А.В., Мандрон В.В., Мишина М.Ю. Инвестиционная деятельность и инвестиционная политика банковского сектора РФ // Вестник БГУ. – 2018. – №3 (37).
5. Райзберг Б.А. Современный экономический словарь / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева; 6-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 512 с.
6. Игоница Л. Л. Инвестиции. – М.: Магистр, 2014. – 752 с.
7. О.А. Haydarov. Milliy iqtisodiyot doirasida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish – i.f.b.f.d. diss., 2020 yil.
8. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. – М: Инфра М. 2003, С. 62.
9. Hamidulin M.B. Rivojlanish moliyaviy mexanizmi korporativ boshqaruv. Iqt. fan. dok. ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya avtorfereyati. – Toshkent, 2008. – 37 b.
10. Алиев У.М. Пути совершенствованию функционирования инфраструктуры рынка ценных бумаг. Iqt. fan. nom. ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya avtorfereyati. Toshkent, BMA, 2008. – 19 b.